

TOG‘-KON SANOATI VA GEOLOGIYA SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN XODIMLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TO‘G‘RISIDA

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish toʻgʻrisida uslubiy qoʻllanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Mazkur uslubiy qoʻllanma Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibini belgilab beradi. Qoʻllanma kadrlar salohiyatini tizimli rivojlantirish, zamonaviy bilim va koʻnikmalarni shakllantirish, ishlab chiqarish va geologiya-qidiruv faoliyatida mehnat unumdorligini oshirish, shuningdek xavfsizlik va sifat standartlariga rioya etilishini kuchaytirish maqsadlariga qaratilgan.

Uslubiy qoʻllanma Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi tashkilotlar, geologiya-qidiruv ekspeditsiyalari, korxona va muassasalar, kadrlar boʻlinmalari hamda oʻquv jarayonlarini tashkil etuvchi masʼul subyektlar uchun moʻljallangan boʻlib, xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish boʻyicha oʻquv ehtiyojlarini aniqlash, oʻquv dasturlarini shakllantirish, oʻqitish jarayonini amalga oshirish, natijalarni baholash va hujjatlashtirishni toʻgʻri, aniq va shaffof yuritishda amaliy qoʻllanma sifatida xizmat qiladi.

© Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

“O‘zbekiston Respublikasining Yer qa‘ri to‘g‘risida”gi Qonuni	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi 92-son “Geologiya-razvedka ishlarini tashkil etish va olib borish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-dekabrda 983-sonli “Yer qa‘rini geologik o‘rganish, foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-noyabrda “Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda tog'-kon sanoati va geologiya sohasini modernizatsiya qilish, yer qa'ridan oqilona foydalanish hamda geologiya-qidiruv va konchilik jarayonlarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlarda tarmoq uchun zarur bo'lgan inson kapitalini mustahkamlash, xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy talablar asosida yangilash, ishlab chiqarish xavfsizligi, ekologik barqarorlik hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tog'-kon va geologiya yo'nalishlarida malakali kadrlar tayyorlash hamda amaldagi xodimlarni qayta tayyorlash jarayonlarining uzluksiz yo'lga qo'yilishi tarmoqning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarishdagi xatarlilik darajasini kamaytirish, texnologik intizomni mustahkamlash, geologik tadqiqotlar sifatini oshirish va investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mazkur uslubiy qo'llanma Tog'-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish tartibini belgilash, o'quv

ehtiyotlarini aniqlash, o'quv dasturlarini shakllantirish, o'qitish jarayonini amalga oshirish, yakuniy baholash va hujjatlashtirish mexanizmlarini izohlash hamda amaliyotda qo'llashni yengillashtirish bo'yicha zarur metodik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.



Umumiy qoidalar

- **Buyurtmachi** — tog'-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari;
- **Malaka oshirish va qayta tayyorlash** — kasbiy bilim va ko'nikmalarni yangilash hamda chuqurlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat;
- **Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari** — tinglovchi (xodim)larga davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim berishni nazarda tutadigan oliy, o'rta-maxsus va o'rta ta'limdan keyingi o'qitish shakli;

Tinglovchi — o'quv kurslariga jalb etilgan va belgilangan tartibda tinglovchilar safiga qabul qilingan hamda sohaviy tegishliligidan qat'i nazar, barcha muhandis-texnik va ishchi xodimlar;



“Tog’-kon va geologiya sohasi xodimlari malakasini oshirish instituti” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda — Institut) tog’-kon tarmog‘i, geologiya, yer qa’ridan foydalanish hamda konchilik, portlatish ishlari, portlovchi materiallarning aylanmasi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha faoliyat yuritadigan davlat muassasasi.



Bilib oling!

Tog’-kon sanoati va geologiya vazirligi (keyingi o‘rinlarda — vazirlik) tizimidagi tashkilotlarning barcha rahbar va muhandis-texnik xodimlari har **3 (uch)** yilda bir marotaba malaka oshirish kursiga jalb qilinadi.

Institut quyidagilarni:

- malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari rejasiga muvofiq o'quv kurslari tashkil etilishi, sifat nazoratini amalga oshiradi, o'quv kurslari yakunlari bo'yicha yagona tizimda bayonnomalarni rasmiylashtiradi;
- o'quv kurslari bitiruvchilariga Tog'-kon sanoati va geologiya sohasi xodimlari malakasini oshirganlik to'g'risidagi sertifikat hamda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda — Inspeksiya) tomonidan nazorat ostidagi kasblar, mutaxassisliklar bo'yicha maxsus guvohnomalar beradi;
- Tog'-kon sanoati va geologiya sohasida Burg'ilash qurilmalari mashinistini qayta tayyorlash o'quv kursi guvohnomalarini tasdiqlaydi va ularning yagona reyestrni yuritadi.

Institut Inspeksiya nazorati ostidagi mutaxassisliklar bo'yicha muhandis-texnik va ishchi xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash o'quv kurslarini markazlashgan holda tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarning fuqarolari va tashkilotlari xodimlari Institutda tashkil etiladigan o'quv kurslarida haq evaziga shartnoma asosida ixtiyoriy ravishda ta'lim olishlari mumkin.



Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslarining maqsadi va vazifalari

Tog'-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat yuritib kelayotgan barcha muhandis-texnik va ishchi xodimlarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratlarini muntazam ravishda oshirib borish o'quv kurslarining maqsadi hisoblanadi.



O'quv kurslarining vazifalari quyidagilardan iborat:

- tinglovchilarning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz oshirib borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq tog'-kon sanoati va geologiya sohasi uchun kasbiy tayyorgarlikni zarur darajada ta'minlash;

- malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslarining nazariy shakllarini to'g'ridan-to'g'ri va bevosita amaliyotga joriy etish;
- o'quv kurslarining fan va ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini, uyg'unligini ta'minlash, tinglovchilar (xodimlar) malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish.



Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslaridan o'tish tartibi

Vazirlik tomonidan har yili tasdiqlanadigan xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash reja-jadvaliga muvofiq vazirlik tizimidagi tashkilotlari hamda o'quv yo'nalishlari kesimida tinglovchilar kontingenti shakllantiriladi hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari tashkil etiladi.

Buyurtmachilar vazirlik tomonidan tasdiqlangan xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash reja-jadvaliga muvofiq xodimlar (tinglovchilar)ni qonunchilikda

belgilangan tartibda Institutga malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslariga yuboradi.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslariga jalb etilgan tinglovchi (xodim)larning hamda professor-o'qituvchilar va yuqori malakali amaliyot mutaxassislarining doimiy ish joyidagi lavozimi va o'rtacha ish haqi saqlanadi.



Bilib oling!

Institutda tog'-kon sanoati, geologiya va turdosh tarmoq ehtiyojlari uchun muhandis-texnik xodimlarning quyidagi yo'nalishlarda malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari tashkil etiladi:

- foydali qazilma konlari geologiyasi va qidiruv ishlari;
- foydali qazilma konlari texnika va texnologiyasi;
- foydali qazilmalarni qazib olish;
- foydali qazilmalarni boyitish geotexnologiyasi;
- metallurgiya;
- uran konlari geologiyasi va qidiruv ishlari;
- uran konlari texnika va texnologiyasi;
- uran konlari boyitish geotexnologiyasi;
- tog'-kon ishlari mexanikasi;
- tog'-kon ishlari elektromexanikasi.



Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslarini moliyalashtirish

**Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari
moliyalashtirish qonunchilik hujjatlarida belgilangan
tartibda quyidagilar:**



- O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari;
- Institut tomonidan shartnoma asosida xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;
- malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari uchun jalb etiladigan grantlar, shu jumladan, xalqaro grantlar;
- yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;
- qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.



Bilib oling!

Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari faoliyatiga oid moliyaviy hisobotlar qonunchilik asosida yuritiladi.



Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslarida o'quv jarayonini tashkil etish

- Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha tartibga solinadi.
- Institutda Inspeksiya nazorati ostidagi mutaxassisliklar bo'yicha muhandis-texnik va ishchi xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari markazlashgan holda tashkil etiladi.
- Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslarining o'quv rejalari va dasturlari tog'-kon

sanoati va geologiya sohasidagi ustuvor yoʻnalishlar asosida har yili takomillashtirib boriladi.

- Malaka oshirish va qayta tayyorlash oʻquv kurslarida nazariy va amaliy oʻquv mashgʻulotlarining maʼruza, interaktiv seminarlar, amaliy mashgʻulotlar, sayyor oʻquv mashgʻulotlari, tajriba almashish, mustaqil taʼlim, malaka amaliyoti, loyiha ishini himoya qilish, brifinglar, tim-bilding kabi asosiy turlari qoʻllanadi.
- Malaka oshirish oʻquv kurslari jalb etilgan tinglovchilar soni oʻn ikki nafardan, qayta tayyorlash oʻquv kurslari jalb etilgan tinglovchilar soni besh nafardan kam boʻlmaganda tashkil etiladi.
- Malaka oshirish va qayta tayyorlash oʻquv kurslarining amaliy mashgʻulotlari Institut hududida tashkil etilgan amaliyot xonalarida, vazirlik tizimidagi tashkilotlar ishlab chiqarish hududlarida (bazalarida) tashkil etiladi.
- Ayrim malaka oshirish va qayta tayyorlash oʻquv kursining nazariy va amaliy mashgʻulotlari xorijiy ilgʻor taʼlim muassasalari va boshqa tashkilotlar negizida tashkil etilishi mumkin.

DIQQAT!

Tinglovchilarning o'zlashtirishi quyidagi tizim asosida baholanadi:

- joriy va yakuniy nazorat natijalari;
- malaka amaliyoti yakunlari;
- loyiha ishini himoya qilish natijalari.



YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv kurslari bo'yicha nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

**Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida faoliyat
yuritayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish toʻgʻrisida uslubiy qoʻllanma**

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid Gʻofurov

Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohkoʻchasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qogʻoz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabogʻi *

Nashriyot hisob tabogʻi **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.